IMOM DORIMIY "SUNAN"I VA IMOM TERMIZIY "SUNAN"INING TUZILISHI HAMDA HADIS ILMIDAGI O'RNI

ROBIYA MANNOBJONOVA
Xadichai kubro ayol qizlar o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi o'qituvchisi
e-mail:robiyamannobjonova@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur tezisda IX asr hadis ilmi taraqqiyotida muhim o'rin tutgan Imom Dorimiy va Imom Termiziyning "Sunan" asarlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda ikki hadis to'plamining tarkibiy tuzilishi, kitob va boblarning joylashtirilishi, hadislarning isnod jihatidan tasnifi, bob nomlarini shakllantirish usullari hamda mualliflarning hadislarni sharhlashdagi yondashuvlari o'rganiladi. Shuningdek, "Sunan Dorimiy" va "Sunan at-Termiziy"dagi bir-biriga mazmunan yaqin hadislar misolida roviylar silsilasi va matnlar o'rtasidagi farqlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida Imom Termiziy ustozlaridan, xususan, Imom Dorimiydan hadis rivoyati va isnod masalalarida ta'sirlangan holda, hadislarni baholash va sharhlash uslubini yanada rivojlantirgani ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Imom Dorimiy, Imom Termiziy, Sunan Dorimiy, Sunan at-Termiziy, hadis, isnod, roviy, marfu', mavquf, maqtu', bob, jarh va ta'dil.

Kirish

IX asr hadis ilmining tizimlashtirilishi va rivojlanishida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Mazkur davrda hadislarni turli mezonlar asosida jamlash, mavzularga ajratish va muayyan tartibda tasniflash an'anasi shakllandi. Ayniqsa, sunan turidagi hadis to'plamlarida ibodat, muomalot va fiqhiy masalalarga oid hadislarni mavzular asosida joylashtirish keng qo'llanildi. Bunday asarlar muayyan masalani hadislar orqali yoritish bilan birga, ularning fiqhiy mazmunini anglash uchun ham muhim manba vazifasini bajargan (1.105).

Movarounnahr hadis maktabining yirik vakillaridan biri Imom Dorimiy bo'lib, uning "Sunan" asari hadis ilmi tarixida alohida ahamiyatga ega. Asarda hadislar bilan bir qatorda sahoba va tobe'inlarning rivoyatlariga ham keng o'rin berilgan. Keyingi davrda Imom Termiziy tomonidan yaratilgan "Sunan at-Termiziy"da esa hadislarni keltirish bilan cheklanmasdan, ularning darajasi, roviylari va fiqhiy mazmuniga doir muhim izohlar berilgan.

Shu jihatdan Imom Dorimiy va Imom Termiziy asarlarini qiyosiy o'rganish ikki muhaddisning hadislarni tasniflash va taqdim etishdagi ilmiy yondashuvlarini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu ikki "Sunan"ning tuzilishi, hadislarning isnod xususiyatlari va boblarni nomlash uslublaridagi o'xshash hamda farqli jihatlarni ochib berishdan iborat.

Asosiy qism

"Sunan" turkumidagi hadis to'plamlarining umumiy xususiyati ularning kitob va boblarga ajratilganligidir. Imom Dorimiyning "Sunan"ida dastlab muqaddima berilib, undan keyin asar 23 ta kitobga ajratilgan. Unda jami 1306 bob va 3503 ta hadis keltirilgan. Imom Termiziyning "Sunan"i esa muqaddimasiz "Tahorat kitobi"dan boshlanib, "Manoqib kitobi" bilan yakunlanadi. Asarda 46 ta kitob, 2036 ta bob va 3965 ta hadis mavjud. Shuningdek, asar yakunida "Illatlar" kitobi berilgan bo'lib, u alohida boblarga ajratilmagan (1.105).

Ikki asarning tarkibiy tuzilishida muayyan farqlar mavjud. Imom Termiziy masalalarni alohida kitoblarga ajratishda batafsilroq yondashgan. Jumladan, "Juma", "Jihodning fazilatlari", "Jihod",

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

"Qulning merosi" kabi mavzular alohida kitoblar sifatida berilgan. Imom Dorimiy esa mazmunan yaqin masalalarni umumiy nom ostida birlashtirishga ko'proq e'tibor qaratgan. Masalan, Termiziy asarida alohida berilgan "Zuhd", "Qiyomatning masalalari va taqvo" hamda "Jannatning tavsifi" kabi mavzular Dorimiyda "Kitabu-r-riqoq" doirasida jamlangan (1.105).

"Sunan at-Termiziy"ning o'ziga xos jihatlaridan biri uning jomi' xususiyatiga ega ekanligidir. Asarda fiqhiy masalalar bilan bir qatorda axloq-odob, tibbiyot, qadar, zuhd, qiyomat, jannat va jahannam, imon, ilm, Qur'on fazilatlari, qiroatlar, tafsir va manoqib kabi mavzular ham qamrab olingan. Shu sababli asar "al-Jomi' as-sahih" nomi bilan ham atalgan (1.49).

Hadislarning isnod jihatidan tasnifiga e'tibor berilganda ham ikki muhaddis yondashuvida muayyan farqlar ko'zga tashlanadi. "Sunan Dorimiy"da 23 ta qudsiy, 238 ta mursal, 1983 ta marfu', 571 ta mavquf va 790 ta maqtu' hadis keltirilgan. "Sunan at-Termiziy"da esa 55 ta qudsiy, 309 ta mursal, 3736 ta marfu', 84 ta mavquf va 16 ta maqtu' hadis qayd etilgan (4.293; 1.49).

Bu ma'lumotlar Imom Termiziy asarida marfu' hadislar asosiy o'rinni egallaganini ko'rsatadi. Imom Dorimiy esa Rasulullohﷺdan rivoyat qilingan hadislar bilan bir qatorda sahoba va tobe'inlarning rivoyatlariga ham katta ahamiyat bergan. Shu jihatdan "Sunan Dorimiy" hadislarning tarixiy va fiqhiy mazmunini tadqiq qilish uchun muhim manba sifatida namoyon bo'ladi.

Ikki muhaddisning ilmiy uslubini ko'rsatadigan muhim jihatlardan biri boblarni nomlash usulidir. Tadqiqot materiallarida bob nomlari bir necha ko'rinishga ajratilgan. Jumladan, umumiy xabar shaklida, maxsus xabar shaklida, savol ko'rinishida, hadisdan iqtibos keltirish orqali, hukm shaklida, noma'lum shaxsni nazarda tutish orqali hamda Qur'on oyatlaridan parcha keltirish orqali bob nomlash usullari uchraydi (4.293; 1.49; 4.302).

Masalan, Imom Dorimiy "باب في فضل الزكاة" "Zakotning fazilati haqidagi bob" shaklidan foydalangan bo'lsa, Imom Termiziyda "ما جاء في فضل الصدقة" "Sadaqaning fazilatiga oid bob" kabi nomlar uchraydi (4.293; 1.49). Ayrim hollarda esa bob nomi savol tarzida beriladi. Bunday usul muayyan masala bo'yicha o'quvchi diqqatini jalb qilish va hadis orqali javob beriladigan masalani aniq ko'rsatishga xizmat qiladi (4.302).

Imom Dorimiy bob yoki hadisdan keyin o'z fikrini "قال عبد الله" yoki "قال ابو محمد" shaklida bayon qilgan. Bunday izohlar asarda ko'p marotaba uchrashi uning faqat hadislarni jamlovchi emas, balki rivoyat mazmunini sharhlovchi muhaddis sifatidagi faoliyatini ham ko'rsatadi. Keyinchalik Imom Termiziy ushbu yondashuvni yanada rivojlantirib, roviylar haqida jarh va ta'dil ulamolarining fikrlarini ham keltirgan (4.113; 3.173–178).

Ikki asarning ilmiy uslubini qiyoslash uchun juma kunidagi duolar ijobat bo'ladigan vaqt haqidagi hadislar muhim misol bo'la oladi. Imom Dorimiy ushbu masalaga oid bobda bir hadisni keltiradi. Imom Termiziy esa shu mazmundagi bir necha rivoyatni turli isnodlar orqali berib, juma kunidagi "ijobat soati"ning vaqti haqida qo'shimcha ma'lumotlarni ham keltirgan (4.261; 2.362–363).

Mazkur hadislar mazmunan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, isnodlarida farq mavjud. Imom Dorimiy rivoyatida roviylar silsilasi Muhammad ibn Kasir, Maxlad ibn Husayn, Hishom ibn Hassan, Ibn Sirin va Abu Hurayra orqali keladi. Imom Termiziy rivoyatida esa Is'hoq ibn Muso al-Ansoriy, Ma'n, Molik ibn Anas, Yazid ibn Abdulloh, Muhammad ibn Ibrohim, Abu Salama va Abu Hurayra orqali yetib keladi. Natijada Dorimiydagi sanad qisqaroq, Termiziydagi sanad esa nisbatan uzunroq bo'ladi (4.261; 2.362–363).

Bu holat Imom Dorimiyning oliy sanadga erishishga intilganini ko'rsatadi. Manbada qayd etilishicha, Imom Dorimiy Imom Termiziydan 24 yosh katta bo'lgan va sanadni imkon qadar qisqa

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

saqlashga harakat qilgan. Uning ayrim roviylardan bevosita hadis rivoyat qilgani ham isnodning qisqaligi bilan ajralib turadi (4.261).

Yana bir muhim jihat har ikki asarda bir xil yoki mazmunan yaqin hadislarning turli isnodlar bilan keltirilishidir. Jumladan, safning orqasida yolg'iz namoz o'qigan kishi haqidagi hadis "Sunan Dorimiy"da ham, "Sunan at-Termiziy"da ham uchraydi. Dorimiyda hadis uchta rivoyat shaklida, Termiziyda esa mazkur masala yuzasidan ikkita hadis shaklida keltirilgan (4.211; 1.445).

Mazkur hadislarning matni deyarli bir xil bo'lib, asosiy farq ayrim lafziy qo'shimchalarda ko'rinadi. Imom Termiziy rivoyatida "namoz" so'zi aniq keltirilgan, Dorimiy rivoyatida esa bu ma'no umumiy kontekstdan anglashiladi (4.211; 1.448). Hadisdan keyin ikki muhaddis ham o'z munosabatini bildirgan. Imom Dorimiy "men bunga qo'shilaman" mazmunidagi fikrni bildirgan bo'lsa, Imom Termiziy o'z ustozi va Vaki'ning shu mazmundagi fikrlarini keltirgan (1.448).

Imom Termiziy uslubining eng muhim xususiyatlaridan biri hadislarning darajasini ko'rsatish va roviylarga doir jarh va ta'dil ma'lumotlarini keltirishidir. U. Uvatovning ta'kidlashicha, Imom Termiziy hadislarni sahih, hasan va zaif kabi guruhlarga ajratib, ularning ishonchlilik darajasiga e'tibor qaratgan. Bu hadis ilmi tarixidagi muhim uslubiy yondashuvlardan biri sifatida baholangan (6.34–35).

Shuningdek, Imom Termiziyning asarida jarh va ta'dilga oid fikrlar 403 o'rinda keltirilgani qayd etiladi. Bu jihatdan uning izohlari Imom Dorimiy asaridagi fikrlardan ancha kengdir. Imom Termiziy ustozidan isnod masalalarini o'rganib, ushbu uslubni rivojlantirgani haqida Nuriddin Itr ham ma'lumot beradi (7.36).

Demak, ikki muhaddisning ilmiy merosida uzviylik mavjud. Imom Dorimiy hadislarni isnodlari bilan birga jamlash, sahoba va tobe'in rivoyatlariga e'tibor berish hamda fiqhiy mazmunni boblar orqali ifodalashga katta ahamiyat bergan. Imom Termiziy esa bu an'anani davom ettirib, hadislarning darajasini belgilash, roviylarga baho berish va fiqhiy qarashlarni izohlash jihatidan uni yanada rivojlantirgan.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Imom Dorimiy va Imom Termiziy "Sunan"lari IX asr hadis ilmi rivojining muhim bosqichini aks ettiruvchi manbalardandir. Har ikki asarda hadislarni mavzular asosida tartiblash, kitob va boblar orqali muayyan masalalarni tizimli ravishda yoritish an'anasi mavjud.

"Sunan Dorimiy"ning o'ziga xos jihati muqaddima qismining mavjudligi, fiqhiy masalalar bilan bir qatorda sahoba va tobe'inlarning rivoyatlariga keng o'rin berilganligi hamda sanadlarning nisbatan qisqaligida namoyon bo'ladi. Asarda 3503 ta hadis, jumladan, marfu', mavquf va maqtu' rivoyatlarning sezilarli miqdorda keltirilgani Imom Dorimiyning hadis merosini keng qamrovda jamlaganini ko'rsatadi (4.293).

"Sunan at-Termiziy" esa tarkibiy jihatdan kengroq bo'lib, fiqhiy mavzular bilan bir qatorda tafsir, axloq-odob, ilm, imon, qadar, zuhd va boshqa masalalarni ham qamrab oladi. Uning muhim xususiyati hadislarning darajasi, roviylar va jarh-ta'dil masalalariga oid muallif izohlarining ko'pligidir (6.34–35).

Qiyosiy tahlil natijasida Imom Termiziy hadislarni tasniflash va sharhlash borasida Imom Dorimiy an'analarini davom ettirib, ularni yanada rivojlantirgani ko'rinadi. Shu sababli mazkur ikki asarni o'zaro qiyosiy o'rganish Movarounnahr hadis maktabining shakllanishi, hadislarni tasniflash metodologiyasi va muhaddislarning ilmiy uslubini tadqiq etishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Adabiyotlar

1. Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn Savra at-Termiziy. Al-Jomi' as-sahih va huva sunan at-Termiziy. 1–5-juzlar. – Bayrut: Al-Ihya at-turos al-arabiy, 1995.
2. Xatib Bag'dodiy, Abu Bakr Ahmad ibn Ali. Tarixi Bag'dod. 102-juz. – Bayrut: Darul kutubil ilmiyya, 1997.
3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad az-Zahabiy. Siyar a'lom an-nubalo. 10-juz. – Bayrut: Mu'assasat ar-Risola, 1985.
4. Imom Dorimiy, Abu Muhammad Abdulloh ibn Abdurahmon. Sunan ad-Dorimiy. – Riyoz: Dorul Mug'niy, 2000. – 1-juz.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. 6-juz: Namoz kitobi. – Toshkent: Sharq, 2005.
6. Uvatov U. Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o'rni (Al-Buxoriy, Muslim, At-Termiziy): Tarix fanlari doktori diss. avtoref. – Toshkent: TIU, 2002.
7. Nuriddin Itr. Al-Imom at-Termiziy va-l-muvozanat bayna jomi'ihi va bayna as-sahihayn. – Bayrut, 1988.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.